



IJTIMOYIY ISH TA'LIM YO'NALISHI TALABALAR ORASIDA IJTIMOYIY
TADBIRKORLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI (SOTSIOLOGIK
TADQIQOT ASOSIDA)

Turg'unboyev Muhammadodil G'ofurjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annatsiya: Ushbu maqolada jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni samarali hal etishda keng darajada tatbiq etilayotgan ijtimoiy tadbirkorlik sohasiga urg'u berilgan. Aynan kelajakda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda yetakchi kadr bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabalarning qarashlari sotsiologik tadqiqot asosida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy ish, sotsiologik tadqiqot, ehtiyoj, ijtimoiy tadbirkor, maqsadli guruh, samaradorlik, ijtimoiy kapital

Bozor munosabatlarining shakllanishining zamonaviy sharoitida o'zlarining hayotiy faoliyatini mustaqil ravishda ta'minlay olmaydigan va ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan ijtimoiy guruhlar paydo bo'ldi. Ushbu holat aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat, keng jamoatchilik va ko'ngillilarni aralashuvini talab qiladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarning maxsus kombinatsiyasiga, ijtimoiy muammolarni "tadbirkorlik" vositalari bilan hal qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlik katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning yangi modeli sifatida zamonaviy iqtisodiy hayotning kontekstini makro va mikro darajada jamiyat muammolarini hal etishda samaradorligi bilindi. Ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy muammolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini izlashga, ijtimoiy keskinlikni yumshatishga, tarmoqlararo chegaralarni hal qilishga qaratilgan. Ijtimoiy tadbirkorlik aholining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va natijada u bilan muntazam aloqada bo'lib, davlatning ba'zi funksiyalarini o'z zimmasiga olishga qodir faoliyatga aylandi.

Ijtimoiy tadbirkorlik - bu ijtimoiy ish kasbi kasbni iqtisodiy, kasbiy va ijtimoiy jihatdan oldinga siljitish uchun ishlaydigan model sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan ijtimoiy harakatdir. Ijtimoiy tadbirkorlik kelajakda murakkab va og'ir ijtimoiy, ekologik muammolarni yumshatishga yordam beradi. Ijtimoiy ish kasbi sanoat inqilobi natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy pandemiya, birinchi navbatda, shaharlardagi keng ko'lamli qashshoqlik va uning asosiy muammolarini yengish uchun ijtimoiy kurash tufayli shakllandi⁴³.

Berzin ijtimoiy ishni ijtimoiy tadbirkorligini ijtimoiy qiymat yaratadigan transformatsion amaliyot sifatida belgilaydi⁴⁴. Ular Dees (1998) kabi mualliflarga murojaat qilishadi, ular tadbirkorning mahorat to'plamini ijtimoiy ishchining maqsadi bilan bog'laydi va missiyaga asoslangan ishbilarmonlik qiyinchiliklarni yengillashtirishga olib keladi deb

⁴³ Lau, D. (2020). Putting knowledge into action: A social work perspective on settlement house research. In J. Gal, S. Köngeter, & S. Vicary (Eds.), *The Settlement House movement revisited: A transnational history* (pp. 163-180). Bristol University Press. <https://doi.org/10.2307/j>

⁴⁴ Berzin, S. C. (2012). Where is social work in the social entrepreneurship movement? *Social Work*, 57(2), 185-188. <https://doi.org/10.1093/sw/sws004>



o'ylashadi. Reysh va boshqa ijtimoiy siyosat tarafdorlari bozorni muammolar manbai deb bilishsa, Berzin, Dis va boshqalar bozorni yechimlar uchun shablon deb bilishadi⁴⁵.

Jamiyatning turli sohalarida keng boshqaruv tuzilmasi va aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining keng tarmog'i bilan ijtimoiy ish ijtimoiy siyosatga faol ta'sir ko'rsatadi, chunki u ijtimoiy jarayonlarni boshqarish tizimida aholining ehtiyojmand qismiga samarali ijtimoiy xizmat ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ish kasbiy faoliyati davlatning ijtimoiy siyosatining muhim elementi bo'lib, amaliy va tashkiliy jihatlarni o'zida mujassam etgan va amalga oshirgan holda, ijtimoiy ish uning hayotiyliigi va samaradorligini ta'minlashning muhim funksiyasini bajaradi.

Biz ushbu tadqiqot ishida ijtimoiy tadbirkorlikni yanada faollashtirishda ijtimoiy ish kasbiy yo'nalishini tamomlayotgan mutaxassislarni ijtimoiy tadbirkorlik bilan bog'liqligini aniqlashga, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'limida ijtimoiy tadbirkorlikga doir ehtiyojlarini o'rganishga harakat qilinadi.


Bugungi kunda respublikamizdagi OTM lar orasida Toshkent Milliy univeritetida, Farg'ona davlat universitetida, Samarqand davlat universitetida, Namangan davlat universitetida, Guliston davlat universitetida, Sirdaryo davlat universitetida, Buxoro davlat universitetida har yili yuz lab bitiruvchilar ta'limni yakunlab, kasbi faoliyatlarini turli sohalarida ish faoliyatini boshlashmoqda. Bizda ushbu tadqiqot orqali OTM lar orasida ijtimoiy tadbirkorlikni o'rgatishda ijtimoiy ish uchun kasbiy tayyorgarlikning uslubiy, nazariy tarkibiy qismlarini mustahkamlashga hissa qo'shadigan shart-sharoitlarni yaratishga qiziqish paydo bo'ldi. Shu bilan birga, ijtimoiy ish sohasi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy tadbirkorlikka kasbiy tayyorlash masalalari mamlakatimiz ilmiy adabiyotlarida yetarli to'liq aks ettirilmagan, bo'lajak ijtimoiy tadbirkorlarni tayyorlash bo'yicha aniq shakllantirilgan tizim mavjud emas, shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatida o'qitishning amaliy natijalari bu yo'nalish yetarli darajada aks ettirilmagan. Ushbu kamchilikni to'ldirish istagi ushbu tadqiqotning ilmiy qiziqishi va maqsadini aniqladi, ya'ni kelajakdagi ijtimoiy ish mutaxassislarining ijtimoiy tadbirkorlik haqidagi g'oyalarini va ularning ijtimoiy tadbirkorlik korxonaga ochishga tayyorligini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan sotsiologik tadqiqot javob beradi deb o'ylaymiz.

Sotsiologik tadqiqot Farg'ona davlat universitetining Ijtimoiy ish kafedrasining Ijtimoiy ish yo'nalishidagi bakalavr va magistr talabalari ishtirok etishdi. Tadqiqotda qatnashgan respondentlar soni 64 nafar bo'lib, ulardan 18 foizi (11 nafari) erkaklar, 82 foizi (53 nafari) ayollar (FarDU ijtimoiy ish yo'nalishida ko'proq ayol jinsdagi talabalar tashkil etadi). So'rovnomada qatnashgan talabalarning 21 % birinchi kurs talabalari, 19 % ikkinchi kurs talabalari, 24% 3-kurs talabalari, 19 % 4-kurs bakalavriat talabalari xisoblandi, shuningdek 1-kurs magistr talabalari 7 % va 2-kurs magistr lari 10 % ni tashkil etadi.

Ushbu sotsiologik tadqiqotda dastlab respondentlardan "Sizningcha ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha savodxonlik darajangiz qanday, iltimos 10 ballik shkalada baholang?" deb so'ralgan savolga javoblarni taqsimlanishi quyidagicha bo'ldi (1-diagramma)

⁴⁵ Dees, Gregory, J. (1998). The meaning of social entrepreneurship. https://centers.fuqua.duke.edu/case/wpcontent/uploads/sites/7/2015/03/Article_Deес_MeaningofSocialEntrepreneurship_2001.pdf


Sizningcha ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha savodxonlik darajangiz qanday, iltimos
10 ballik shkalada baholang?



Respondentlarning tanlangan javoblarning ko'p qismini ya'ni 25 foizi- ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha savodxonlik darajasi 5 ballik shkalada deb javob berishgan. Ta'kidlash kerakki 1-shkladan 5-shklalagacha belgilangan respondentlar jami 61. 5 foizini tashkil etmoqda. Bundan bilish mumkini ijtimoiy tadbirkorlikga oid yetarli bilim va ko'nikmalar kam.

Keyingi savolga "Do'stlaringiz, tanishlaringiz orasida ijtimoiy tadbirkorlar (ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar) bormi?" - deyilgan savolga javoblarni taqsimlanishi 2-diagrammadan bilib olish mumkin.


Do'stlaringiz, tanishlaringiz orasida ijtimoiy tadbirkorlar (ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar) bormi?



Ushbu savolga javob bergan respondentlar asosan 39.1 foizi- do'stlari, tanishlari orasida ijtimoiy tadbirkorlar yo'q deb, shuningdek 31,3 foizi- do'stlari, tanishlari orasida ijtimoiy tadbirkorlar bor, ko'p emas deyilgan javoblarni belgilashgan. Anglash mumkinki buguni kunda ijtimoiy tadbirkorlik shakllanish bosqichidaligini respondentlar javobidan bilash ham mumkin.


Navbatdagi savolga "Sizningcha, O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik qanchalik keng tarqalgan?" - deyilgan savolga javoblarni taqsimlanishi ushbu 3-diagrammada o'z aksini topgan.

Sizingcha, O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik qanchalik keng tarqalgan?




Sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan respondentlarning ushbu savolga javob berilishida eng ko'p respondentlar 51,6 foizi – yetarlicha tarqalgan emas, 21,9 foizi – yetarlicha tarqalgan degan javoblarni belgilashdi. Respondentlarni javobini tahlil qilinganda ijtimoiy tadbirkorlik sifatida o'zbek milliy qadriyatlari va islom dini arkonlari bo'lgan xayriya tadbirlari, qiynalganlarga yordam berish kabi savobli amallarni ham xisoblashishgan.

Navbatdagi savolga "Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassisga ijtimoiy tadbirkorlik bilim va ko'nikmalari kerak deb o'ylaysizmi?" - deyilgan savolga javoblarni taqsimlanishi ushbu 4-diagrammada o'z aksini topgan.




Sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan respondentlarning ushbu savolga javob berilishida 82,8 foizi - Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassisga ijtimoiy tadbirkorlik bilim va ko'nikmalari kerak deb javob berishgan, bundan bilish mumkinki universitetning ijtimoiy ish yonalish talablarida ijtimoiy tadbirkorlikni to'liq va samarali o'rganish ehtiyoji mavjudligini.

Keyingi savolni maqsadi "Siz ijtimoiy ish mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumot diplomni olganidan keyin, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini boshlagan bo'larmidingiz?" - deyilgan savolga javoblarni (3 tagacha javob bedgilanishi mumkin) taqsimlanishi quyidagi 5-diagrammada aks etgan.



Ushbu savolga javob bergan respondentlar asosan 59,4 foizi ha javobi asosida, ijtimoiy ish mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumot diplomni olgandan keyin, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini boshlashini ta'kidlashgan. Bizni e'tiborimizni tortgan tomoni shundaki, respondentlarning 31,3 foizi o'ylab ko'rmaganman degan javobni belgilashgan. Bu bilan talabalar ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha yetarli darajada tanishmaganligini ko'rish mumkin.

Navbatdagi savolni maqsadi "Bo'lajak ijtimoiy ish mutaxassislarini o'z ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini ochishga undaydigan motivlar qatoridan o'zingizga mosini belgilang?"- deyilgan savolga javoblarni (2 tagacha javob bedgilanishi mumkin) taqsimlanishi quyidagi 6-diagrammada aks etgan.




Respondentlarning javoblarini taxlil etishda quyidagilar: 31,7 foiz insonlarga yordam berish javobini, 15,8 foiz bilan shaxsan o'zini va yaqinlarini tashvishga soladigan



muammolarni hal qilish, 12,5 foiz bilan davlat maqsadlariga xizmat qilish va daromad deyilgan javoblarni belgilashgan. Umuman olganda eng ko'p berilgan javobni tahlil qilishda bilishimiz mumkinki, respondentlar ijtimoiy ish kasbiy qadriyatlariga sodiqligi va amal qilishini ko'rishimiz mumkin.

Navbatdagi savolni maqsadi "muvaffaqiyatli ijtimoiy tadbirkorlikni qanday shartlari bor"-deyilgan savolga javoblarni taqsimlanishi ushbu 7-diagrammada o'z aksini topgan.



Ushbu savolga respondentlarning javobi tahlil qilinganda, 20,6 foizi ijtimoiy tadbirkorlarni jalb qilgan holda o'quv tadbirlari tashkil etish va 17.6 foizi moliyaviy qo'llab quvvatlash grant yoki sibsidiyalarning mavjudligi deyilgan javoblarni belgilashgan. Shuningdek 16 foiz ovoz bilan maxsus kurslar, treninglar va mahorat darslarida ta'lim olish zarurligini tasdiqlashgan. Darhaqiqat samarali ijtimoiy tadbirkorlikni amalga oshirishda tajriba, mablag' va bilim zarur ekanligini tasdig'ini ushbu savolga berilgan respondentlarning javobidan ham anglash mumkin.

Qiyin hayotiy vaziyatlarda bo'lgan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularga yordam berish tizimini modernizatsiya qilish sharoitida ijtimoiy xizmatlar oluvchilarning resurslarini to'liq faollashtirishga qodir bo'lgan resurslarni izlash dolzarb bo'lib qoladi. Shu munosabat bilan ijtimoiy soha mutaxassislarga, bir tomondan, ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga, ikkinchi tomondan, ularning ijodiy salohiyatini, jumladan, tadbirkorlik faoliyatida namoyon bo'lishiga yo'naltirilgan mutaxassislarga yuqori talablar qo'yilmoqda.

Ushbu tadqiqot asosida xulosa qilib ta'kidlash kerakki. respondentlarni ijtimoiy tadbirkorlikga oid bilim va ko'nikmalari yetarli darajada emasligi javoblardan anglanmoqda, shuningdek respublikamizda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar yetarli darajada ko'p emasligi, bundan bugungi kunda shakllanayotgan bosqichda ekanligini tushunishimiz mumkin. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan ijtimoiy ish yo'nalishi talabalariga ijtimoiy tadbirkorlikga oid akademik bilim kerak. Buning asosiy sababi, ushbu yo'nalishni tamomlayotgan talabar kelgusida ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirishgan. Ushbu maqsadni yo'naltiruvchisi esa insonlarga yordam



berish mativini ko'rsatishgan. Ijtimoiy tadbirkorlikni samarali tashkil etishda tajriba, sarmoya va bilim, ko'nikma zarurligini respondentlar javobida izohlashgan.

Tadqiqotning umumlashtirilgan natijalarini asos qilib quyidagi takliflarni bildirish o'rinli. "Ijtimoiy ish" o'quv yo'nalishining uchinchi kurs talabalari uchun "Ijtimoiy ishda ijtimoiy tadbirkorlik" o'quv fanini kiritish kerak. Buning asosiy sababi sifatida, biz ijtimoiy tadbirkorlik uchun kasbiy tayyorgarlikning ustuvor yondashuvlari sifatida aksiologik, xayriya, sinergistik, subyektga, amaliyotga yo'naltirilgan va axborotga asoslangan yondashuvlarni ajratib ko'rsatamiz. Ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish talabalarning sohaga doir bilimlari, xayriya qadriyatlari va amalga oshirish ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari potentsial ijtimoiy tadbirkorlar jamoalarini shakllantirish, ijtimoiy tadbirkorlik loyihalarini boshqarishga tayyorlikni shakllantirishga sabab bo'ladi.